

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**NASRITDINOVA GULCHEXRA ABDURASHITOVNA**

**TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISH  
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI (AVTOMOBIL  
SANOATI MISOLIDA)**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2023-yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the  
Doctor of Philosophy (PhD) on economics sciences**

**Nasritdinova Gulchexra Abdurashitovna**

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari (Avtomobil sanoati misolida)..... 3

**Насритдинова Гулчехра Абдурашитовна**

Пути совершенствования механизмов привлечения прямых иностранных инвестиций (на примере автомобильной промышленности) ..... 25

**Nasritdinova Gulchexra Abdurashitovna**

Improving mechanisms of attracting foreign direct investment (on the example of the automobile industry). ..... 49

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 54

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**NASRITDINOVA GULCHEXRA ABDURASHITOVNA**

**TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISH  
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI (AVTOMOBIL  
SANOATI MISOLIDA)**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2023-yil**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2018.3.PhD/Iqt755 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Bekmurodov Adxam Sharipovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Alimardonov Ilxom Muzrabshoxovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xaydarov Nizomiddin Xamroyevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent moliya instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 03/10.12.2019.I.16.01 raqamli ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengashning 2023 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil:100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: [tdu@tdu.uz](mailto:tdu@tdu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil:100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239 – 28 - 72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: [tdu@tdu.uz](mailto:tdu@tdu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2023-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_-raqamli reestr bayonnomasi).

**M.P.Eshov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**U.V.G'afurov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**S.K.Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining kuchayishi sharoitida sanoat tarmoqlari, ayniqsa avtomobil sanoatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni (TTXI) jalb etish orqali global qiymat zanjirida faol harakatini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. “Jahonda 2021-yilda jami 80,1 mln. dona avtomobil ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2020-yilga nisbatan 3 foiz o‘shirib kuzatilgan, ularning 71 foizi yengil avtomobillardir. 2021-yilda avtomobil sanoatida jami 145,7 trln. AQSh dollari investitsiyalar yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning qariyb 44 foizi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalardan iborat”<sup>1</sup>. Geosiyosiy vaziyatlar va Covid-19 pandemiyasi bilan bog‘liq cheklovlar sabab xalqaro avtomobilsozlik kompaniyalarida ishlab chiqarish faoliyatining cheklanishini bilan bir qatorda ko‘plab mamlakatlarda avtomobillarga bo‘lgan talabning pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Jahon avtomobil bozorida yuzaga kelayotgan inqirozli holatlar mamlakatlarda ushbu tarmoqni rivojlantirishga qaratilgan samarali investitsion siyosat yuritishni taqozo etmoqda.

Jahon mamlakatlarida iqtisodiy o‘shirishni ta‘minlash hamda investitsion jarayonni kuchaytirish kabi muhim vazifalarni o‘zaro uyg‘unlashtirish va amaliyotga tatbiq etish maqsadida samarali investitsion siyosat doirasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirishga oida ko‘plab ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Avtomobil sanoatining investitsion jozibadorligini oshirishning strategik yo‘nalishlarini aniqlash, raqobatbardoshlikni TTXI asosida oshirishning yangicha mexanizmlaridan foydalanish, avtomobil sanoatining innovatsion faoliyatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar asosida oshirish mexanizmini yaratish hamda mavjud investitsion salohiyat va imkoniyatlarni safarbar etishning ta‘sirchan mexanizmlarini shakllantirishning ilmiy-metodologik asoslarini takomillashtirish bu boradagi ilmiy-tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot davrida qulay investitsion muhitni yaratish, iqtisodiyotni sarmoya bilan ta‘minlash, investitsion faoliyatning jozibadorligini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, avtomobil sanoatida investitsiyalarga bo‘lgan talabning rag‘batlantirilishi, investitsiyalar resurs bazasining kengaytirilishi, qulay investitsion muhitning yaratilishi natijasida mazkur tarmoqqa 2015 – 2021-yillarda qariyb 3347,3 mlrd. so‘m hajmida investitsiyalar jalb qilingan. 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Avtomobil sanoatida kooperatsiyani yanada rivojlantirish orqali ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga, eksport hajmini 2 baravarga ko‘paytirish va mahalliyashtirish darajasini oshirish”<sup>2</sup> alohida vazifa sifatida belgilangan. Ushbu vazifalarning samarali ijrosini ta‘minlash uchun jalb etilgan TTXIdan samarali foydalanish, tarmoq ishlab chiqarishini mahalliyashtirish, xorijiy investorlarni yanada ko‘proq jalb etishga yo‘naltirilgan shart-sharoitlar yaratish, sanoatning investitsion siyosatini ishlab

<sup>1</sup> [https://stats.oecd.org/index.aspx?DatasetCode=FDI\\_FLOW\\_INDUSTRY](https://stats.oecd.org/index.aspx?DatasetCode=FDI_FLOW_INDUSTRY); <http://www.oica.net/> - International Organization of Motor Vehicle Manufacturers

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

chiqishning ustivor strategik yo‘nalishlarini belgilash, “Sanoat 4.0” konsepsiyasi asosida raqamli transformatsiyalashuv, horijiy kompaniyalar bilan samarali kommunikatsiya tizimlar yaratish va integratsiyalashuv muammolariga oid ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirish taqozo etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son “2022 – 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 1-iyundagi PQ-3028-son “Avtomobil sanoatini 2017 – 2021-yillarda yanada rivojlantirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 28-dekabrda PQ-4937-son “O‘zbekiston Respublikasining 2021 – 2023-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 14-maydagi PF-5717-son “O‘zbekiston Respublikasi investitsiya dasturini shakllantirish va amalga oshirishning sifat jihatidan yangi tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror va farmonlari va mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishiga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustivor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Investitsiya nazariyasi va investitsion jarayonlar sohasidagi tadqiqotlarga oid bilimlar J.M.Keynes, E.Böhm-Bawerk, I.Fisher, R.F.Harrod, H.M.Markowitz, R.Merton, F.Modigliani, M.H.Miller, J.Tobin, W.F.Sharpe, M.S.Scholes, E.Altman, R.Dornbusch, C.R.Mc Connell<sup>3</sup> kabi xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida ko‘rib chiqilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari olimlari A.G.Aganbegyan, Ye.A.Lukinskaya, V.V.Bocharov, Ye.N.Kulyushin, A.M.Margolin, M.Yu.Makovetskiy, F.S.Tumusovlar<sup>4</sup> o‘z ilmiy ishlarida sanoat korxonalariga

---

<sup>3</sup>Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. Избранное. The General Theory of Employment, Interest and Money, 1936. The Selected Works.- М.:Эксмо, 2007. -С. 960.; Eugen Böhm-Bawerk. Positive Theory of Capital // Economic Logic. - 3 rded. - Washington: Capital Press, 2010. - P. 265-266.; Fisher, Irving. The Theory of Interest. - New York. The Macmillan company, 1930.; Harrod R.F. Doctrines of Imperfect Competition// Quarterly Journal of Economics 48 (May 1934), pp. 442-470; Markowitz H.M. Portfolio Selection: Efficient Diversification of Investment. Wiley. - New York. 1959.; Merton, Robert K. (December 1936). «The Unanticipated Consequences of Purposive Social Action». American Sociological Review. 1 (6): 894–904; Franco Modigliani and Merton H. Miller. The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of Investment. The American Economic Review, Vol. 48, No. 3 (Jun., 1958), pp. 261–297. American Economic Association; Tobin, James. «Money, Capital, and Other Stores of Value», American Economic Review, 1961.51(2), pp. 26-37; Altman Edward. Corporate Financial Distress and Bankruptcy, 3 rdedition. - John Wiley and Sons, 2005; C.R.McConnell, S.L.Brue. Economics: Principles, problems, and policies fourteenth edition.1992

<sup>4</sup> Аганбегян А.Г. Инвестиции – основа ускоренного социально-экономического развития России. - Москва, Деньги и кредит, 2012. №5. -12с.; Лукинская Е.А. Инвестиционный потенциал, инвестиционная привлекательность, инвестиционный климат: сущность и взаимосвязь. Уфа. Агентство международных исследований, 2016. -93с.; Бочаров В.В. Инвестиции. - СПб. Питер, 2002. -288с.; Кулюшин Е.Н. Инвестиционный потенциал и его использование в зависимости от институциональных условий. Казань. //Экономическая теория, 2010. №12. -34с.; Марголин А.М., Быстряков А.Я. Экономическая оценка инвестиций. - М.: «Экмос», 2001. -240с.; Маковецкий М. Ю. Инвестиционное обеспечение экономического роста: теоретические проблемы, финансовые

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni yo'naltirishning umumiy jihatlarini va investitsion tahlil, investitsion salohiyatni baholash masalalariga alohida e'tibor qaratganlar.

O'zbekiston iqtisodchi olimlari A.Sh.Bekmurodov, S.S.G'ulomov, N.M.Maxmudov, B.B.Berkinov, N.G'.Karimov, A.V.Vaxabov, J.A.Muinov, U.S.Nadirxanov, D.G.G'ozibekov, B.B.Samarxodjayev, E.X.Maxmudov, F.U.Dodiyev, D.X.Nabiyev, A.Sabirov, Sh.I.Mustafakulov, S.A.Abduraximova va boshqa ko'plab olimlarning ilmiy izlanishlarida sanoat korxonalarida TTXIni jalb etish jarayonlarini jadallashtirish va investitsion faoliyatni boshqarishning ayrim jihatlarini ko'rib chiqilgan<sup>5</sup>.

Mazkur tadqiqotlarda sanoat korxonalariga TTXIni jalb etishdagi muammolarning umumiy jihatlarini va boshqarish mexanizmlarini tadqiq etish bo'yicha ma'lum nazariy va metodologik natijalar olingan bo'lishiga qaramasdan, O'zbekiston avtomobil sanoati korxonalariga TTXIni jalb etishning nazariy va uslubiy asoslarini yaratish masalalari maxsus, mustaqil ilmiy-tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Aynan shu jihatlar dissertatsiya mavzusini tanlash va tadqiqot vazifalari doirasini belgilashga asos bo'ldi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq PZ-2020110229 "Investorlar uchun "E investment" smart mobil ilovasini ishlab chiqish" mavzusidagi innovatsion (2021-2023 yy.) loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** avtomobil sanoati korxonalariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishning nazariy va uslubiy jihatlarini, zamonaviy usul va modellarini o'rganish va tizimlashtirish;

---

инструменты, тенденции развития. - М.: Анкил, 2005. -312с.; Гумусов Ф.С. Инвестиционный потенциал региона: теория, проблемы, практика. - М.: «Экономика», 1999, -272 с.

<sup>5</sup> Bekmurodov A.SH. va b. O'zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish yillarida. 1 - 5-qismlar. - T.: 2005. - 310 b.; Gu'lyamov S.C. Климат для инвесторов. - T.: 2005. -156 б.; Махмудов Н.М. Инвестиции – ресурсный двигатель экономики// Иностранные инвестиции в РУз. -T., 2008. -№2. -С.50.; Berkinov B.B., Vayxonov B.T., Abduraximova S.A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. - T., 2011. -128 b; Karimov N.G'. O'zbekiston Respublikasida investitsion loyihalarni takomillashtirish yo'llari. - T.: Fan va texnologiya, 2007. -192 б.; Вахабов А.В. Иностранные инвестиции и модернизация национальной экономики. - T.: Молия, 2011.; Надырханов У.С. Прямые иностранные инвестиции в Узбекистане: опыт, проблемы, перспективы роста. - T.: Фан ва технология, 2011.; G'ozibekov D.G. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. -T.: Moliya, 2003.; Самарходжаев Б.Б. Инвестиции в Республике Узбекистан (международно-частноправовой аспект). - T.: Изд-во «Академия», 2003. - 240 с.; Махмудов Э.А. Организационно экономический механизм привлечения прямых иностранных инвестиций в экономику Узбекистана: Дисс. кан. экон. наук. - T.: Институт экономики АНРУз, 2005. -147 с.; Додиев Ф.У. Финансовое стимулирование инвестиционной деятельности: Дисс. кан. экон. наук. - T.: ТашФИ, 1998.; Nabiyev D.X. Ta'lim sohasidagi investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari (O'zbekiston o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimi misolida): Дисс. ...кан. экон. наук. - T.: ТДИУ, 2003.; Sabirov A. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb etishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish. Дисс. ...кан. экон. наук. - T., ТДИУ, 2009.; Mustafakulov Sh.I. O'zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish //Архив научных исследований. - 2020. - Т. 33. - №. 1.; Abduraximova S.A. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida investitsiya jarayonlarini makroiqtisodiy tartibga solish. I.f.n. diss. - T., TDIU, 2012.

avtomobil sanoati tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha xorijiy tajribalardan O'zbekiston amaliyotida foydalanish bo'yicha imkoniyatlarni belgilash;

O'zbekiston avtomobil sanoatining rivojlanishi va investitsion faoliyati va jozibadorligi holatini tahlili qilish;

avtomobil sanoati tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini baholash;

avtomobil sanoatining investitsion jozibadorligini oshirishning strategik yo'nalishlarini aniqlash;

avtomobil sanoati raqobatbardoshligini to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish asosida oshirish yo'llari bo'yicha taklif va tavsiyalar tayyorlash;

avtomobil sanoatining innovatsion faoliyatini to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar asosida oshirish mexanizmini yaratish.

**Tadqiqotning obyekti** bo'lib O'zbekiston avtomobil sanoati sohasida faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsion faoliyati hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** avtomobil sanoati korxonalariga TTXIni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot davomida ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-matematik modellashtirish, ekspert baholash, so'rov, SWOT tahlil, korrelyatsion, regression tahlil, klaster tahlil, POLS model va yashirin ta'sir modeli (FES) usullaridan foydalanilgan;

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

avtomobil sanoatining investitsion jozibadorligini baholash indikatorlari tizimi hamda uning mezonlari amaldagi va potensial investorning manfaatlariga mos ravishda investitsion jozibadorlik va risk omillarini belgilab beruvchi, iqtisodiy hamda moliyaviy holatini bevosita tavsiflovchi ko'rsatkichlarga ko'ra takomillashtirilgan;

jahon avtomobil ishlab chiqaruvchi mamlakatlarning investitsiyalar bozoridagi raqobat pozitsiyalarini aniqlashning klaster tahlil (k-means clustering) usuli xorijiy investorlarni himoya qilish indeksi (Strength of minority investor protection index) va inson kapitalini rivojlanish indikatorlarini (Human Development Indicators) kiritish asosida takomillashtirilgan;

avtomobil sanoati tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish samaradorligini baholash ichki kapitallashuv, inson kapitali, mahalliy texnologik imkoniyatlar, lokalizatsiyalash darajasi, innovatsiya imkoniyatlarining oshishi bilan bog'liq modifikatsiyalangan mezonlar asosida xorijiy investitsiyalarning yashirin ta'sir modeliga ko'ra takomillashtirilgan;

avtomobil sanoatiga jalb qilinayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar strategik loyihalarining an'anaviy ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan tavsifini tarmoqdagi inson kapitali, infratuzilma va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirishga yo'naltirish orqali tarmoq raqobatbardoshligini oshirish taklifi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

sanoat korxonalarini investitsion jozibadorligini baholash jarayoni investor va tarmoq korxonalarining investitsion faollikni aks ettiruvchi omillarning mutanosibligi asosida takomillashtirilgan;

jahon mamlakatlarida tarmoqning investitsion muhit jozibadorligini baholash bo'yicha indikatorlar tizimlashtirilgan;

xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha O'zbekiston uchun avtomobil sanoatiga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etishda eng maqsadga muvofiq davlat sifatida Kanada, Xitoy, Fransiya, Buyuk Britaniya ekanligini klaster tahlil usuli asosida aniqlangan;

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning avtomobil sanoatini rivojlanishiga ta'sirini baholash bo'yicha PLS modeli taklif etilgan;

TTXIning jalb etish strategiyasini ishlab chiqish bosqichlari va uning texnologiyasi, harakatlar rejasi taklif etilgan;

TTXIning kiritish orqali sanoat raqobatbardoshligini oshirishning asosiy determinantlari inson kapitali, ilmiy-tadqiqot rivojlanishi, infratuzilma ekanligi asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ularni taniqli iqtisodchi olimlarning TTXIning jalb qilish borasidagi ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, ilg'or xorij tajribasini o'rganish va umumlashtirish, axborotlar bazasining milliy va xalqaro nufuzli tashkilotlarning rasmiy manbalaridan olinganligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga hamda boshqa rasman e'lon qilingan amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan O'zbekiston Respublikasida avtomobil sanoati korxonalarining TTXIning jalb qilish yo'nalishlarini takomillashtirishga bag'ishlangan maxsus ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda ilmiy-uslubiy asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalardan respublikada avtomobil sanoati korxonalarida TTXIning jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish, strategik tahlil, prognoz modellarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Avtomobil sanoatiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

avtomobil sanoatining investitsion jozibadorligini baholash indikatorlari tizimi hamda uning mezonlari amaldagi va potensial investorning manfaatlariga mos ravishda investitsion jozibadorlik va risk omillarini belgilab beruvchi, iqtisodiy hamda moliyaviy holatini bevosita tavsiflovchi ko'rsatkichlarga ko'ra takomillashtirish taklifi "O'zavtosanoat" AJ tomonidan "Avtomobil sanoatiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish chora-tadbirlari dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan ("O'zavtosanoat" AJning 2021-yil 13-dekabrda 19/04-24-2264-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida amaldagi va potensial investorlarning manfaatlariga mos ravishda avtomobil sanoatining investitsion jozibadorligini baholash indikatorlar tizimi "O'zavtosanoat" aksiyadorlik jamiyatida xorijiy investitsion loyihalarni baholash va qaror qabul qilish jarayoni samaradorligini oshirish imkonini yaratgan;

jahon avtomobil ishlab chiqaruvchi mamlakatlarning investitsiyalar bozorida raqobat pozitsiyalarini aniqlashning klaster tahlil (k-means clustering) usuli xorijiy investorlarni himoya qilish indeksi (Strength of minority investor protection index) va inson kapitalini rivojlanish indikatorlarini (Human Development Indicators) kiritish asosida takomillashtirish taklifi “O‘zavtosanoat” AJ tomonidan “Avtomobil sanoatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish chora-tadbirlari dasturi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (“O‘zavtosanoat” AJning 2021-yil 13-dekabrda 19/04-24-2264-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida “O‘zavtosanoat” AJga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha eng yuqori darajada maqsadga muvofiq mamlakatlar sifatida Kanada, Xitoy, Fransiya, Buyuk Britaniya ekanligi aniqlangan hamda “O‘zavtosanoat” AJ tarkibiga kiruvchi aksiyadorlik jamiyati aksiyalarini mahalliy va xalqaro fond bozorlarida birlamchi ommaviy joylashtirish orqali investorlarni jalb etish amaliyoti kiritilgan;

avtomobil sanoati tarmoqlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish samaradorligini baholash ichki kapitallashuv, inson kapitali, mahalliy texnologik imkoniyatlar, lokalizatsiyalash darajasi, innovatsiya imkoniyatlarining oshishi bilan bog‘liq modifikatsiyalangan mezonlar asosida xorijiy investitsiyalarning yashirin ta’sir modeliga ko‘ra takomillashtirish taklifi “O‘zavtosanoat” AJ tomonidan “Avtomobil sanoatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish chora-tadbirlari dasturi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (“O‘zavtosanoat” AJning 2021-yil 13-dekabrda 19/04-24-2264-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2020-yilda 2019-yilga nisbatan jalb etilgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarda ishlovichlar sonini 1,8 foizga, lokalizatsiyalash darajasini 3,5 foizga hamda innovatsion mahsulotlarning jami mahsulotlardagi salmog‘ini 1,6 foizga oshirishga erishilgan;

avtomobil sanoatiga jalb qilinayotgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar strategik loyihalarining an’anaviy ish o‘rinlarini yaratishga qaratilgan tavsifini tarmoqdagi inson kapitali, infratuzilma va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirishga yo‘naltirish orqali tarmoq raqobatbardoshligini oshirish taklifi “O‘zavtosanoat” AJ tomonidan “Avtomobil sanoatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish chora-tadbirlari dasturi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (“O‘zavtosanoat” AJning 2021-yil 13-dekabrda 19/04-24-2264-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida avtomobil sanoatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning tarmoq raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi inson kapitali, infratuzilma va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlanishiga qaratilishi strategik loyihalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-iyuldagi PQ-4397-son qarori bilan tasdiqlangan 2019 – 2020-yillarda O‘zbekiston Respublikasi avtomobil sanoatini yanada rivojlantirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 12 ta ilmiy ish, O‘zbekiston Respublikasi OAKning doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy

natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 4 ta maqola (3 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 151 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Sanoat tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida, sanoat tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishning nazariy va uslubiy jihatlari o'rganilgan, horijiy investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb etishning zamonaviy usul va modellari aniqlangan, avtomobil sanoati tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha xorijiy tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari aniqlangan.

Investitsiya siyosati mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Chunki, shu siyosat orqali mamlakat ishlab chiqarish quvvatini yuqori darajada oshirish, ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi va sifatining ortishi, moddiy va ma'naviy ehtiyoj qondirilishi, butun davlat infratuzilmasining rivojlanishi ta'minlanadi.

Iqtisodiyotga yo'naltiriladigan xorijiy investitsiyalarning markazlashtirilgan holda nazorat qilish va ularni kiritilishini rag'batlantirish maqsadida barcha mamlakatlarda strategik dasturlar qabul qilinadi va mazkur dasturga kiritilgan loyihalarni amalga oshirish natijasida iqtisodiyot rivojlanadi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda chet el investitsiyalarini mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi asosiy jihatlarga bo'lgan bir qator qarashlar mavjud. Jumladan, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar globallashtirishning asosiy tarkibiy qismi sifatida qaraladi va ular orqali mamlakatlarning uzoq muddatli o'zaro iqtisodiy aloqalari ta'minlanadi, yangi ish joylari yaratiladi hamda xalqaro raqobatbardoshlikni ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi.


Jahon iqtisodiyoti tajribasida xorij kapitalini, xususan, TTXIlarni jalb qilish eng samarali vosita ekanligi ma'lum. Aynan chet el investitsiyalari mamlakatda iqtisodiy va texnologik yangilanish jarayonini harakatlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Xorijiy investitsiyalar – bu chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, iqtisodiy samaraga erishish maqsadida boshqa davlat iqtisodiyoti real sektoriga, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlarga safarbar etiladigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklardir.

TTXilar ochiq va samarali xalqaro iqtisodiy tizimning ajralmas qismi va rivojlanishning muhim katalizatoridir. Iqtisodiyotda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning asosiy maqsadi mavjud mablag'lardan, vaqt va imkoniyatlardan samarali foydalanishdir.

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan bir qator ishlar amalga oshirilgan bo'lsada TTXI tizimlashtirilgan nazariya va modellari, tipologiyasi, tarkibiy tuzilishi, ularni jalb qilish mexanizmlarini ishlab chiqishning ilmiy metodologik asoslarini ishlab chiqishga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Shuningdek, mahalliy tadqiqotchilar asosan TTXIning mintaqaviy rivojlanishiga ta'sirini o'rganishgan. Sanoat korxonalarini, ayniqsa avtomobil sanoatiga TTXIning jalb etish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirilmagan va asosiy e'tibor ichki investitsiyalar samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Ilmiy-tadqiqotlar sharhlaridan ko'rish mumkinki, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga asossiz ravishda keng imtiyoz va afzalliklar berilishining o'zi ulardan kutilayotgan iqtisodiy samaraga erishish mumkinligini asoslaydi. Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy samarasini ta'minlash uchun avvalo investitsiyani qabul qiluvchi mamlakatda qulay investitsion muhit yaratilishi lozim. Xorijiy investitsiyalarning mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri bilan bir qatorda, boshqa investorlarning mamlakat iqtisodiyotiga kirib kelishini rag'batlantiruvchi rolini ham kuzatish mumkin.

TTXIlarning iqtisodiyotni rivojlantirishga bo'lgan ta'sirini ilmiy-tadqiqot natijalarini umumlashtirilgan holda 1-rasmda ifodalanadi.



**1-rasm. Xorijiy investitsiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy samarasi tasnifi <sup>6</sup>**

<sup>6</sup> Muallif ishlanmasi

1-rasmda xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirining asosiy oqibatlarini iqtisodiy muhitga ta'sir ko'rsatuvchi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning qarorlariga ta'sir qiluvchi samaralari aks etgan.

Umuman olganda, TTXIni malakatga jalb etish bo'yicha aniq metodologik asoslar ishlab chiqish uchun investorlarni jalb etishning bir qator zamonaviy usul va modellari jahon olimlari tomonidan yaratilgan. Shularni inobatga olgan holda, xorijiy investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb etishning zamonaviy usul va mexanizmlari sifatida quyidagilarni keltirib o'tish maqsadga muvofiq: "xalqaro tovar harakati davriyligi nazariyasi", "transmilliy kompaniyalar va nomukammal raqobat", "oligopoliya va TTXilar", "internalizatsiya nazariyasi", "uchayotgan g'ozlar" paradigmasi, TTXilar va millatlarning raqobat ustunliklari nazariyasi, OLI (mulkchilikka, joylashuvga va internatsionallashuvga xos afzalliklar) modeli nazariyalari.

TTXI nazariyasi g'arb va rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy transformatsiyaning tarixiy bosqichlarini hamda milliy iqtisodiyot va jahon savdosiga to'g'ridan-to'g'ri ta'siri asosida rivojlanganligi bilan ahamiyatli. Halqaro kapital oqimi bo'yicha shakllangan nazariyalar va modellar TTXilar oqimlarini tahlil qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, milliy iqtisodiyot va tarmoqlarning raqobatbardoshligi sabablarini tushunishga, asosiy muvaffaqiyat omillarini aniqlashga ham yordam beradi.

Dissertatsiyaning **"Avtomobil sanoatiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish holati va samaradorligi tahlili"** deb nomlangan ikkinchi bobida, O'zbekiston avtomobil sanoatining rivojlanishi va investitsion faoliyati, investitsion jozibadorligini iqtisodiy-matematik modellar va statistik tahlil usullaridan foydalanish asosida tahlil qilingan. Avtomobil sanoatiga TTXIlarni jalb etish samaradorligini baholash bo'yicha uslubiy yondashuvlar taklif etilgan.

O'zbekistonda avtomobil sanoatini rivojlantirish bo'yicha qariyb 25 yildan ortiq tajriba mavjud. O'zbekiston avtomobilsozlik sanoati yuqori darajada rivojlangan va jahon bozorida o'zining munosib ulushiga ega bo'lgan davlat sifatida qaraladi. O'zbekistonda "General Motors Uzbekistan" kompaniyasida zamonaviy standartlarga javob beradigan, qulayligi, xavfsizligi, ishonchliligi va tejamkorligi bilan dunyo bo'yicha raqobatlasha oladigan yengil avtomobillar ishlab chiqarilayotgan bo'lsa, Samarqanddagi "SamAvto" zavodida tayyorlanayotgan "ISUZU" rusumli avtobuslar, yuk avtomobillari, ixtisoslashtirilgan transport vositalari – avtofurgon, suv va chiqindi tashish mashinalari, avtokranlar, evakuatorlar ishlab chiqaradi va ichki bozorni ishonchli, foydalanishga qulay bo'lgan avtomobillar bilan ta'minlaydi.

Respublika avtomobil sanoatida 2022-yilning 1-sentabr holatiga jami faoliyat yuritayotgan 72 ta korxonalarda jami 27 mingdan ziyod aholi ish bilan band. Avtomobil sanoatiga 2015 – 2021-yillarda jami 3347,3 mlrd.so'm investitsiyalar jalb etilgan bo'lib, bu holat mamlakat sanoatiga yo'naltirilgan jami investitsiyalarning 10,2 foizini tashkil etgan.

Avtomobil sanoati O'zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmog'i sifatida 2010-yilda jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 12,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda uning ulushi 8,5 foizni tashkil etgan. (1-jadval). 2021-yilda avtosanoat sohasida faoliyat yuritadigan korxonalar tomonidan jami 32167,6 mlrd.


soʻmlik avtotransport vositalari, treyler va yarim pritseplar ishlab chiqarilgan. 2015-yilda ushbu qiymat 7826,3 mlrd. soʻmni tashkil etgan boʻlib, oʻsish surʼati yiliga oʻrtacha 12,2 foizni tashkil etgan. “Oʻzavtosanoat” AJ tomonidan 2016-yilda jami 88,2 ming dona avtomobillar ishlab chiqarilgan boʻlsa, 2021-yilda 235,8 ming dona, 2022-yilning 9 oyida esa 230,3 ming dona yengil avtomobillar ishlab chiqarilgan. Oʻzbekiston Markaziy Osiyoda yoʻlovchi va tijorat transport vositalarining toʻliq assortimentini ishlab chiqaruvchi yetakchi mamlakat hisoblanadi. Hozirgi kunda 70 dan ortiq korxonalar avtosanoat sohasida faoliyat yuritmoqda va ushbu soha boʻyicha 200 dan ortiq xorijiy korxonalar va tashkilotlar bilan hamkorlik mavjud.

## 1-jadval

### Avtotransport vositalari, trayeylerlar va yarim pritseplar va boshqa transport uskunalari ishlab chiqarish, mlrd.soʻm<sup>7</sup>

Koʻrsatkichlar	2010	2015	2020	2021
<b>Ishlab chiqaradigan sanoat</b>	<b>28742,8</b>	<b>78492,3</b>	<b>305928,6</b>	<b>378186,4</b>
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	3562,3	7826,3	33594,9	32167,6
Boshqa transport uskunalari ishlab chiqarish	91,3	212,4	879,3	1137,6
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarishning oʻsishi, %	107,9	79,9	99,4	94,8
Boshqa transport uskunalari ishlab chiqarishning oʻsishi, %	110,3	89,9	102,5	108,8
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarishning jami sanoatdagi ulushi, %	12,4	10,0	11,0	8,5
Boshqa transport uskunalari ishlab chiqarishning jami sanoatdagi ulushi, %	0,3	0,3	0,3	0,3

Oʻzbekistonda avtomobil sanoatida raqobatbardosh bozor muhitini yaratish va qulay investitsiya muhitini shakllantirish sohasida 2016-2021-yillarda bir qator yuqori ahamiyatga ega boʻlgan investitsiya loyihalari amalga oshirilgan.



### 2-rasm. 2015 – 2021-yillarda Oʻzbekiston avtomobilsozlik sanoatiga investitsiyalar, mln. AQSh dollari<sup>8</sup>

2-rasm maʼlumotlariga koʻra, 2016-yilda “Oʻzavtosanoat” AJ tomonidan 120,6 mln. AQSh dollari qiymatidagi investitsiya loyihalari amalga oshirilgan. Natijada

<sup>7</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi maʼlumotlari.

<sup>8</sup> <https://review.uz/oz/post/obzor-centra-ekonomicheskix-issledovaniy-i-reform-razvitie-avtomobilnoy-promshlennosti-uzbekistana-za-5-let>

“UzAutoMotors” AJ zavodida texnologik modernizatsiyalash hamda aluminiy mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil etish bo‘yicha loyihalar bajarilgan.

2017-yilda “O‘zavtosanoat” AJ tomonidan 65,1 mln. AQSh dollari qiymatidagi investitsiya loyihalar asosida “Labo” markali avtomobillarni ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan hamda “Angren” EIZ hududida konveyer lentolari, qishloq xo‘jaligi va avtomobil shinalari ishlab chiqarish boshlangan. 2018-yilda 21,8 mln. AQSh dollari qiymatidagi investitsiya loyihalari doirasida avtomobillarining isitkich va ventilyasiya tizimini ishlab chiqarish hamda yengil avtomobillar uchun plastmassali butlovchi qismlarni ishlab chiqarish bo‘yicha investitsiya loyihalari bajarilgan.

2019-yilda “O‘zavtosanoat” AJ tomonidan 70,2 mln. AQSh dollari qiymatidagi investitsiya loyihalari amalga oshirilgan. Xususan, Namangan viloyatining Norin tumanida ikki va uch g‘ildirakli mototsikllarni ishlab chiqarishni tashkil etish bo‘yicha investitsiya loyihasi muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. Xaridorlar uchun taklif etilayotgan yuk avtomobillari turlarini kengaytirish maqsadida, “JV MAN Auto - Uzbekistan” MCHJ bazasida Xitoyning “Sinotruk” kompaniyasi bilan hamkorlikda, qariyb 12 mln. AQSh dollari miqdorida xorijiy investitsiyalarni jalb qilgan holda yangi turdagi yuk avtomobillarini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Bundan tashqari, “SamAvto” MCHJ bazasida ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida Yaponiyaning “Isuzu Motors” va “Itochu Corporation” kompaniyalarining 15,26 mln. AQSh dollari miqdoridagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalari samarali jalb qilingan.

2020-yilda “O‘zavtosanoat” AJ tomonidan 114,6 mln. AQSh dollari qiymatidagi investitsiya loyihalari amalga oshirilgan. Jumladan, “Uzlogistic” MCHJ logistika kompaniyasi faoliyati samarali yo‘lga qo‘yilgan, “SamAvto” MCHJ qo‘shma korxonasi ishlab chiqarish faoliyati kengaytirilgan.

2021-yilda 221,5 mln. AQSh dollarga teng bo‘lgan 5 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilgan.

O‘zbekistonda investitsion muhitning barqarorligi va investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan siyosat ham xorijiy investitsiyalarning kirib kelishining asosiy sharti hisoblanadi. Investitsion jozibadorlik ob‘ekt sifatida muayyan bir miqyosda, ya‘ni biron bir loyiha, korxonalar, mintaqalar, tarmoqlar hamda mamlakat darajasida ko‘rilishi mumkin.

Investitsion jozibadorlikni baholash bo‘yicha yondashuvlarga ko‘ra iqtisodiy matematik modellashtirish (korelyatsion, dispersion va boshqa usullar), omilli tahlil usullari (omillar guruhlarini o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash), guruhlash usullaridan (omillarning vazn koeffitsiyentlarini aniqlash) va ekspert baholash kabi usullardan foydalanish mumkin.

Dissertatsiyada avtomobil sanoatida investitsiyalar jalb qilish uchun raqobatlashayotgan mamlakatlarning investitsion jozibadorligini aniqlash maqsadida klaster tahlilini amalga oshirilgan. Klaster tahlili jahon mamlakatlarining avtomobil sanotini investitsion jozibadorligini aniqlash va O‘zbekistonning ushbu tarmoqdagi investitsion salohiyatini boshqa raqobatlashayotgan mamlakatlar bilan taqqoslash imkonini beradi.

Avtomobil ishlab chiqarivchi mamlakatlar bo‘yicha investitsiya bozorida raqobatlashayotgan mamlakatlarning investitsion jozibadorligini aniqlash maqsadida shakllantirilgan indikatorlar tizimi 2-jadvalda aks etgan.

**Sanoat tarmog‘ining investitsion muhit jozibadorligini baholash  
bo‘yicha indikatorlar tizimi<sup>9</sup>**

№	Tanlangan omil	Belgilash	Manbasi	Sharxi
1.	Mamlakatlarning jami mahsulot ishlab chiqarishdagi ulushi	ICH	OICA.net	Jahonda ishlab chiqarilgan jami avtomobillarda mamlakatlar ulushi va uning o‘zgarishlari
2.	Tarmoqda TTXI ichki oqimi	IFFDI	Statistics of UNCTAD.	Avtomobil ishlab chiqaruvchi mamlakatlarda TTXI larning ichki oqimining jamiga nisbatan ulushi
3.	Tarmoqda TTXI jami oqimi	ISFDI	Statistics of UNCTAD.	Avtomobil ishlab chiqaruvchi mamlakatlarda TTXI larning jami oqimida mamlakatlar ulushi
4.	Mamlakatlarning avtomobil tarmog‘idagi xorijiy korxonalar soni	NumENT	Investmentmap.org.	Avtomobil ishlab chiqaruvchi mamlakatlarda ushbu tarmoqlarda faoliyat yurituvchi jami korxonalar soni
5.	Mamlakatlarda avtomobil tarmog‘idagi xorijiy filiallar soni	NumENTF	Investmentmap/org.	Avtomobil ishlab chiqaruvchi mamlakatlarda ushbu tarmoqlarda faoliyat yutuvchi jami filiallar soni
6.	Mamlakatlarning avtomobil eksporti	EXP	Investmentmap/org.	Jahon eksportida mamlakatning ulushi va uning o‘zgarishlari
7.	Mamlakatlarning avtomobil importi	IMP	Investmentmap/org.	Jahon impotida mamlakatning ulushi va uning o‘zgarishlari
8.	Eksportning o‘rtacha ta‘riflari	Avgfaced	Investmentmap.org.	Jahon mamlakatlari tomonidan avtomobil eksporti uchun duch keladigan o‘rtacha barcha ta‘riflar
9.	Importning o‘rtacha ta‘riflari	Avgapplied	Investmentmap/org.	Mamlakatga boshqa mamlakatlarning avtomobil eksporti uchun duch kelinadigan o‘rtacha qo‘llaniladigan tariflar
10.	Xorijiy investorlarni himoya qilish indeksi	PMIR	doingbusiness.org	Jahon bankining «Biznes yuritish» yo‘nalishidagi reytingining investorlarni himoya qilish indeksi (Strength of minority investor protection index)
11.	Iqtisodiyotning ochiqlik indeksi	EFSI	fraserinstitute.org	Iqtisodiyotning ochiqlik indeksi. Economic Freedom Summary Index
12.	Inson kapitalini rivojlanish indikatorlari	HDI	undp.org/ human development report	Inson kapitalini rivojlanish indikatorlari. Human Development Indicators.

Taklif etilgan indikatorlar bo‘yicha yig‘ilgan statistik ko‘rsatkichlar asosida “SPSS statistics” dasturidan foydalanib amalga oshirilgan klaster tahlil natijalari avtomobil ishlab chiqaruvchi 43 ta mamlakatlarni 5 ta guruhga ajratilgan (3-jadval). Unga ko‘ra birinchi klasterdan 1 ta mamlakat ya‘ni AQSh joy oldi va klasterlarning yakuniy markazlashuvi bo‘yicha tanlangan omillarning eng maqsadli ko‘rsatkichlarini aniqlash imkonini berdi. AQShning o‘ziga xos jihati belgilangan ta‘riflarning nisbatan pastligi, investitsiyalar ichki va tashqi oqimining boshqa mamlakatlarga nisbatan eng yuqori ko‘rsatkichlari bilan tasniflanadi, avtomobillar eksport va importi bo‘yicha yetakchi mamlakatlardan biri sifati samarali investitsiya muhitini shakllantirgan mamlakat sifatida qarash mumkin.

2-klasterda jami 3 ta mamlakat birlashdi (Koreya, Meksika, Yaponiya). Mazkur mamlakatlarning o‘ziga xos jihati barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha muvozanatlashgan

<sup>9</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

investitsion muhit yaratishga harakat qilgan mamlakatlardir. Ushbu mamlakatlarda savdo ta'riflarining eng minimal miqdorlari belgilangan bo'lsada, xorijiy korxonalarni o'z mamlakatiga joylashtira olmaydigan va asosan investitsiyalarni xorijiy mamlakatlarga joylashtirishga intiladigan mamlakatlardir.

### 3-jadval

#### Avtomobil ishlab chiqaruvchi mamlakatlarni klaster tahlil asosida guruhlash natijalari<sup>10</sup>

Klasterlar	Soni	Mamlakatlar nomi
1	1	AQSh
2	3	Koreya, Meksika, Yaponiya
3	1	Italiya
4	34	O'zbekiston va boshqa turli mamlakatlar
5	4	Kanada, Xitoy, Fransiya, Buyuk Britaniya
Jami	43	

3-klasterda yana bir alohida xususiyatga ega bo'lgan mamlakat sifatida Italiya ajrab chiqdi. Uning o'ziga xosligi savdo va investitsiya oqimi bo'yicha tariflarni boshqa mamlakatlarga nisbatan pastligi va inson kapitali indeksi nisbatan past ko'rsatkichli hisoblanib, mashinasozlik tarmog'i o'ziga xos bo'lgan strategiyalar asosida rivojlangan.

4-klasterda jami 34 ta mamlakat birlashdi va O'zbekiston ham ushbu mamlakatlar qatoridan joy olgan. Ushbu mamlakatlar guruhiga xos asosiy xususiyatlar quyidagilar: avtomobillar ishlab chiqarish, eksport va importda eng kam ulushga ega bo'lgan, investorlarni himoya qilish bo'yicha indikatorlarda eng past va savdo ta'rif stavkalarining nisbatan yuqori ekanligi bilan ajralib turuvchilar.

5-klasterda esa jami 4 ta mamlakat birlashib, ularga investitsion imkoniyatlari keng va eng raqobatlashayotgan mamlakatlar sifatida qarash mumkin. Ushbu guruhdagi davlatlarda investorlarga yaratilgan sharoitlar ularda xorijiy korxonalarni mamlakat ichiga joylashtirish va mamlakatdan tashqarida filiallar tashkil etish bo'yicha keng imkoniyatlar yaratganlardir. Ushbu mamlakatlarda savdo tariflarining nisbatan yuqori bo'lishiga qaramay, jami eksportning qariyb 35 foizidan ortig'i shu mamlakatlar xissasidir. O'zbekiston uchun investitsion muhit jozibadorligini oshirish bo'yicha amalga oshiriladigan strategik yo'nalishlar aynan 5-klasterga tegishli bo'lgan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib belgilash maqsadga muvofiqdir.

TTXIlarni jalb qiluvchi mamlakatlarda investorlarga yaratib beriladigan bir qator sharoitlar bo'lsada, investitsiya qiluvchi mamlakatning samaradorlikka erishishi to'liq kafolatlanmaydi. Sababi, investitsiya qabul qiluvchi mamlakat o'ziga hos bo'lgan xususiyatlar asosida investorlarga turli imtiyozlar taqdim etadi va shart-sharoitlar yaratib beradi holos.

TTXIlarning samaradorligini baholash uchun bir qator modellardan foydalaniladi. Muallif fikricha, ishlab chiqarish samaradorligi va TTXI o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni aniqlash uchun amaliyotda keng foydalaniladigan Kobb-Duglas ishlab

<sup>10</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

chiqarish funksiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Qabul qilingan ishlab chiqarish funksiyasiga asoslanilganda quyidagi gipotezalar shakllanadi:

H<sub>1</sub>-avtomobil sanoati tarmog'ida ishlovchilar sonining (L) o'sishi korxonalarini samaradorligiga ijobiy ta'siri mavjud;

H<sub>2</sub>-mahalliy investitsiyalar hajmining o'sishi (K) avtomobil sanoati tarmog'idagi korxonalarining iqtisodiy samaradorligiga ijobiy ta'siri mavjud;

H<sub>3</sub>-ishlab chiqarish xodimlari sonida malakali texnik xodimlar sonini (H) o'sishi avtomobil sanoatidagi korxonaning samaradorligiga ijobiy ta'siri mavjud;

H<sub>4</sub>-jami harajatlar salmog'ida ilmiy-tadqiqotlarga qilingan xarajatlar salmog'ining o'sishi innovatsion imkoniyatlarni oshirib, avtomobil sanoati tarmog'idagi korxonaning samaradorligiga ijobiy ta'sir qiladi;

H<sub>5</sub>-mahalliy lashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirib, avtomobil sanoati korxonalarining samaradorligiga ijobiy ta'siri mavjud;

H<sub>6</sub>-mahalliy korxonaning xorijiy firmalarini ko'payishi texnik bilimlari va ichki texnologik salohiyatidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi va avtomobil sanoati tarmog'idagi korxonaning samaradorligiga ijobiy ta'siri kuzatiladi;

“O'zavtosanoat” AJ, O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining 2008 – 2021-yillardagi ma'lumotlar asosida avtomobil sanoatida mahsulot ishlab chiqarish hajmiga (U) belgilab olingan omillar ta'sirini baholash bo'yicha eng kichik kvadrlar usuli asosida POLS olingan model va yashirin ta'sir model (FES) natijalari “Pooled Least Squares” usuli orqali quyidagi (4) funksiya olingan:

$$\text{LOG}(Y) = 0,406*\text{LOG}(A) + 0,488*\text{LOG}(G) - 0,59*\text{LOG}(H) - 0,157*\text{LOG}(K) + 0,167*\text{LOG}(R) + 2,289*\text{LOG}(S) \quad (1)$$

$$R_2 = 0,83$$

Avtomobil sanoatini rivojlanishiga tanlangan omillarning ta'sirini aniqlash bo'yicha olingan (4) logorifmik regressiya modelining natijalari quyidagicha:

avtomobil sanotini rivojlanishiga yuqori malakali texnik xodimlarning jami ishlovchilar sonidagi ulushining pastligi (H) va xorijiy investitsiyalarning jalb etish darajasi (K) teskari bog'lanishga ega;

korxonalar sonining ko'payishi (A), innovatsion faoliyat (G), lokalizatsiyalash darajasi (S) hamda innovatsion faoliyat bo'yicha harajatlar (R) avtomobil sanoatini rivojlanishiga yuqori ta'sir etuvchi omillar sifatida qarash mumkin;

Model natijalaridan ma'lum bo'lmoqdaki avtomobil sanoatiga jalb etilayotgan investitsiyalardan korxonalarda samarasiz foydalanilgan va yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida yetarlicha ishlar amalga oshirilmagan.

Olingan 2-POLS model natijalari (4-jadval) bo'yicha avtomobil sanoati xorijiy investitsiyalarsiz rivojlanganda qolgan omillar, jumladan, yangi tashkil etiladigan korxonalarining (A) avtomobil sanoatini rivojlanishiga ta'sirini pasayishi, yuqori malakali texnik xodimlarning (H) avtomobil sanoatini rivojlantirishga qo'shayotgan hissasini yanada pasayishi, lokalizatsiyalash darajasining (S) ham pasayishi kuzatilar edi.

Biroq, innovatsion mahsulotlar (G) hamda innovatsiyalarga qilinadigan xarajatlar (R)ning avtomobil sanoatini rivojlanishiga ta'siri oshib borgan bo'lar edi.

**“O‘zavtosanoat” AJ iqtisodiy rivojlanishiga omillar ta‘sirini baholash  
natijalari<sup>11</sup>**

O‘zgaruvchilar	1-POLS model	t-test	r-test	2-POLS model	t-test	r-test
Korxonalar soni (A)	0,406	1,36	0,17	0,254	0,83	0,14
Innovatsion mahsulotlar (G)	0,488	6,3	0,00	0,530	6,72	0,00
Yuqori malakali texnik xodimlar (H)	- 0,59	-2,60	0,001	-0,694	-2,93	0,004
Xorijiy investitsiyalar (K)	-0,157	-2,86	0,005	-	-	-
Innovatsiyalarga qilinadigan xarajatlarning (R)	0,167	3,67	0,004	0,194	4,20	0,0001
Lokalizatsiyalash darajasi (S)	2,289	5,68	0,000	2,24	5,37	0,00
R <sup>2</sup>	0,83			0,81		
Log likelihood	-9,48			-13,6		
Durbin-watson stat	2,14			2,0		

Qabul qilingan ishlab chiqarish funksiyasiga asoslanib qo‘yilgan gipotezalar bo‘yicha tahlil natijalaridan kelib chiqib quyidagicha asoslanadi:

H<sub>1</sub>- avtomobil sanoati tarmog‘ida ishlovchilar sonining (L) o‘shishi korxonalari samaradorligiga ijobiy ta‘siri mavjud, agar xorijiy investitsiyalar jalb qilinmasa ushbu ta‘sir pasayadi;

H<sub>2</sub>- xorijiy investitsiyalar hajmining o‘shishi (K) avtomobil sanoati tarmog‘idagi korxonalarining iqtisodiy samaradorligiga ijobiy ta‘siri mavjudligi bo‘yicha gipoteza rad etiladi;

